



FARG‘ONA VILOYATI QUVA TUMANI HOKIMINING QARORI

Quva tumani, Qayqubbod ko‘chasi 244 uy

2022 йил «14» феврал

53-11-156-Q/22

Quva tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan tuman hokimligiga ish, hizmatlar va tovarlar harid qilish doimiy tanlov komissiyasini tuzish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat haridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuniga asosan budget mablag‘laridan oqilona va samarali foydalanish hamda tuman hokimligiga ish, hizmatlar va tovarlar harid qilishda eng yaxshi takliflar tanlab olish uchun doimiy tanlov komissiyasini tuzish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat haridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonunining 7-bobi (eng yaxshi takliflarni tanlash)ga asosan bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravarigacha qiymatdagi ish, hizmat, tovarlarni tuman hokimligiga yetkazib berishda eng yaxshi takliflarni tanlab olish uchun tuman hokimligi boshqaruv apparati hodimlaridan iborat doimiy tanlov komissiyasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Doimiy tanlov komissiyasi zimmasiga tuman hokimligiga tadbirkorlar tomonidan taklif qilinayotgan ish, hizmat va tovarlarning birinchi navbatda sifatiga, narxiga va yaroqliligiga hamda yetkazib berish muddatiga alohida e‘tibor qaratish vazifalari topshirilsin.

3. Ushbu qarorni nazorat qilish tuman hokimining birinchi

o‘rinbosari A.Siddiqov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



X. Умаров

Қува туман ҳокимининг
2022 йил 14 февралдаги
53-11-156-Q/22-сон қарорига
1-илова

**О‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi
Qonuninga asosan tuman hokimligiga ish, xizmatlar va tovarlar
harid qilish doimiy tanlov komissiyasi**

TARKIBI

№	F.I.Sh	-	Lavozimi
Tanlov komissiya raisi			
1	A.Siddiqov	-	Tuman hokimi o‘rinbosari, investitsiya bo‘limi boshlig‘i
Tanlov komissiya a‘zolari			
2	N.Mamarasulov	-	Tuman hokimligi devonxona mudiri
3	A.Djo‘rayev	-	Tuman hokimligi bosh mutaxassisi
4	A.Bo‘riboyev	-	Tuman hokimligi bosh hisobchisi
5	X.Sodiqov	-	Tuman hokimligi yetakchi mutaxassisi
6	M.Jalolov	-	Tuman hokimligi yetakchi mutaxassisi
7	T.Xolmatov	-	Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari

Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda o‘rniga tayinlangan rahbar va xodimlar komissiya a‘zolari tarkibiga kiritiladi.